



## UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN’AT FANIDAN TO’GARAK MASHG’ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

**Muallif:** Xudoyberdiyev Doniyor<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** CHDPU 1-kurs talabasi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14542879>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida tasviriy san’at to’garaklarida o’quvchilarning ijodiy, ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada tasviriy san’at to’garaklari o’quvchilarga rang, ko’rinish, kompozitsiya kabi san’at asoslarini o’rganishga, o’z ijodiy g’oyalarini ifodalashga, o’zaro munosabatlarni rivojlantirishga, o’z hissiyotlarini ifoda etishga va interdiskiplinar yondashuv orqali umumiy bilim doirasini kengaytirishga yordam berishi ta’kidlanadi.

**Kalit so’zlar:** maktab, ta’lim, o’qitish, tasviriy san’at, san’at, rasm, to’garak, mashg’ulot, kompozitsiya.

Bugun O’zbekiston Respublikasida har bir yangilanayotgan sohalardagi ijobiy o’zgarishlar qatorida ta’lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim-tarbiya tizimi mutlaqo o’zgardi. Yangi avlodni yangicha ruhda tarbiyalash, yangicha yashashga, ish yuritishga o’rgatish zarurligi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan asoslab berildi. Masalan: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus doirasida yosh avlodni ma’daniyat, san’at bilan uzviy bog’liqligini isbotladi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Yurtboshimiz ta’kidlagandek “Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O’zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim. Mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi”<sup>1</sup> Shu bois ham barcha maktab va talim dargohlarida to’garak faoliyatiga e’tibor yanada ortdi.

Umum ta’lim maktablarida tasviriy san’at va to’garak mashg’ulotlarining ahamiyati shundaki umumiy o’rta ta’lim maktablarida to’garaklarining maqsad va vazifalari asosan bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni qat’iy reja asosida muntazam olib borilishi talab etiladi.

<sup>1</sup> <https://uza.uz/oz/posts/prezident-madaniyat-va-san-at-sohasi-rahbarlari-bilan-yig-il-25-12-2017>

To'garaklar har bir maktabda san'atning turlari, guruhlar bo'yicha bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garak rahbarining asosiy e'tibori quyidagilarga qaratiladi:

Tasviriy yoki amaliy san'at to'garaklariga qiziqishi va qobiliyati bor o'quvchilar qabul qilinadi hamda har bir guruhda ularning soni 10-15 tadan oshmasligi lozim. Aks holda ular bilan olib boriladigan ishlarning sifati pasayib ketadi. To'garakda bolalarning qiziqishi, idroki, tasviriy malakalari, ijodiy qobiliyatlari o'rganilib va ma'lum vaqt mobaynida sinovdan o'tkazilib, qabul qilinadi.

To'garaklarda tasviriy va amaliy san'at ta'limi mazmuni alohida e'tiborga loyiq. Ta'lim mazmunining to'g'ri belgilanishi to'garak ishini muvaffaqiyotini ta'minlaydi. Shuning uchun rahbar mavjud dasturlarni o'rganib chiqishi va shu asosda o'zining mahalliy sharoitlari, bolalarning tayyorgarligi va imkoniyatlari, moddiy-texnikaviy asosning mavjudligiga qarab ta'lim mazmuniga oid o'z rejasini ishlab chiqadi. To'garaklar tasviriy va amaliy san'atning qaysi turi yoki janri yuzasidan bo'lishligidan qat'iy nazar, u amaliy va nazariy qismlardan tashkil topadi.

Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar umumiy o'rta ta'lim tizimida muhim o'rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san'at, me'morchilik kabi san'at turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bular sinfdan tashqari ishlar, to'garaklardagi mashg'ulotlar, uchrashuv, ko'rgazma, tanlov, san'at kechalari kabi qator yo'nalishlarda o'tkaziladi va ular o'quvchilarni badiiy-ijodiy ehtiyojlarini qondirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ulardagi individuallik va iste'dodni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga u yoshlarning badiiy va estetik fikr doirasini kengaytiradi.

To'garaklar san'atning u yoki bu turi yoki janri asosida ham tashkil etilishi mumkin. Bu to'garaklarning turlari ularga ajratilgan soatlar hajmi va ta'lim mazmuni bolalarning istaklari va maktab imkoniyatlari, bolalarning yoshlik xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Tasviriy san'at to'garaklari umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda, estetik sezgi va ijodiy yondashuvlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolaning maqsadi tasviriy san'at to'garaklarining ahamiyatini ochib berish, ularning o'quvchilar shaxsini shakllantirishdagi roli va ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

Tasviriy san'at to'garaklari o'quvchilarga rang, ko'rinish, kompozitsiya kabi san'at asoslarini o'rganishda yordam beradi. Bu jarayon nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar o'z ijodiy g'oyalarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa ularning o'z-o'zini anglash va ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tasviriy san'at to'garaklari o'quvchilarning ijtimoiy va emosional rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, jamoa bo'lib ishlash va o'z fikrini bayon etish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Ayniqsa, san'at orqali o'z hissiyotlarini ifoda eta olish, o'zini erkin his qilish va stressdan qutilish jarayonida katta yordam beradi.

Tasviriy san'at orqali ta'lim jarayonida interdiskiplinar yondashuvni qo'llash mumkin. Masalan, rasmda geometrik shakllar yoki ranglar nazariyasi o'qitilsa, badiiy adabiyot yoki tarix darslari bilan bog'liq holda mavzular ochilishi mumkin. Bunday

yondashuv o'quvchilarning umumiy bilim doirasini kengaytiradi va ularni yanada qiziqtiradi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari ijodkorlikni rivojlantiradi. O'quvchilar ranglar, shakllar va kompozitsiyalar mavjudligini his qilish va o'z ijodiy imkoniyatlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon, shuningdek, innovatsion fikrlash qobiliyatini rag'batlantiradi. San'at asarlarini yaratish jarayonida o'quvchilar muammolarni hal etish, yangi g'oyalar yaratish va yangi yondashuvlar qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Tasviriy san'at to'garaklari orqali o'quvchilar estetik did va san'atni qadrlash qobiliyatini shakllantiradilar. Bu, o'z navbatida, ularning san'atga nisbatan hayajon va qiziqishini oshiradi, bu esa mustaqil ravishda san'at asarlarini ko'rgazmalarini tashkil etish va baholash qobiliyatlariga olib keladi.

Maqolamizning mohiyati shundaki, umum ta'lim maktablarida to'garak faoliyatlarini yanada takomillashdan iborat. Shu sababdan ham maktablarda to'garak faoliyatini kengaytirish va takomillshtirish zarur. San'at bolalarning ruhiy ma'naviy olamini tarbiyalaydi va ulardagi turli hil negativ agressiv holatlardan saqlaydi. bola o'zida kechayotgan ruhiy holatlarni o'z asarida namayon etadi. Bu asarlardan foydalanib maktab psixiloglari ularni holatini biolib oladi. Hamda ularning kreativ fikrlashga, vatanga bo'lgan muhabbat hisiniyanada rivojlantirishga yordam beradi. Muhtaram Prtezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek: "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi"<sup>2</sup>.

Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at to'garaklari nafaqat ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, balki ijtimoiy, emosional va intellektual rivojlanishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarga yangi g'oyalarni yaratish, o'z hissiyotlarini ifodalash va san'at orqali o'zlarini anglash imkoniyatini beradi. Shuning uchun, tasviriy san'at to'garaklari umumta'lim tizimida alohida e'tiborni talab qiladi va o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son. <https://lex.uz/docs/-3107036>.

Ankabaev Raxim Turg'unovich. [Tasviriy sanat tugaraklarida ukuvchilarga zomin manzarasini chizish orkali yestetik madaniyatini rivojlantirish metodikasi](#). Academic research in educational sciences, 2020, 385-390.

Salavatovna M. G. (2023). Umumtalim muassasalarida to'garak mashg'ulotlarini tashkillash yuzasidan metodik tavsiya. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 6(9), 55-58.

Sa'diyev S. (2024). Darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni tasviriy savodxonlikka oid ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Molodaye uchenye*, 2(5), 65-67.

<sup>2</sup> <https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>